



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

## 6/2024



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

## 6/2024

<b>O'rmonova N.M.</b>	Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjimalari tarixidan	98
<b>Jafarova I.A.</b>	English sentimentalism: its formation and evolution period	105
<b>Farmonova M.N.</b>	Iqbol Mirzo she'riyati va folklor asarlarida motiv	109
<b>Fayzulloev O.M.</b>	Tracing the genesis and evolution of the game «Red Rover»	115
<b>Qosimova N.F., Nosirova L.R.</b>	Tarjimada gramatik transformatsiyalarning ahamiyati	120
<b>Shamamedova Z.X.</b>	The noir legacy and its influence on contemporary literature	124
<b>G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.</b>	Jeyms Joysning "Eveline" hikoyasida bilvosita xarakterlash va simbolizmlarning ahamiyati	129
<b>Sabirova Z.Z.</b>	Zamonviy she'riyat xususida	133
<b>Axmedova H.H.</b>	Muhammad Yusufning maktub-she'rlari	136
<b>Ганбарова Н.Г.</b>	Роль переводных текстов в аспекте межлитературной коммуникации	141
<b>MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Hayitov Sh.A., Davronova M.S.</b>	Alisher Navoiy «Arba'in»i hamd va «Sababi ta'lifi manzuma» qismlarining qiyosiy-matniy tahlili	148
<b>JURNALISTIKA *** JOURNALIZM *** ЖУРНАЛИСТИКА</b>		
<b>Рахматуллаева И.Н.</b>	Интерпретация национальных и общих ценностей на телевидении Узбекистана в эпоху глобализации	154
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Amonova Z.Q.</b>	“Xamsa”da “So`z gavhari vasfi”	162



# Navoiy gulshani

## “XAMSA” DA “SO’Z GAVHARI VASFI”

*Amonova Zilola Qodirovna,*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d.*

Soz – eng ulug‘ qudratki, butun olamlarning ubtidoyu intihosi unga bog‘liq. So‘z olamlardan, borliq va odamlardan ilgari mavjud bo‘lib, Alloh taoloning “Kun” (Bo‘l) ilohiy amri ila butun dunyo yaraldi. Sharq musulmon olamida so‘zga borliq va odamning ibtidosi sifatida qaraladi. Shu bois ulug‘ mutafakkirlar, buyuk so‘fiylar so‘zning muqaddasligi va ulug‘ligi haqida o‘z asarlarida alohida to‘xtalib o‘tishgan. Masalan, Jaloliddin Rumi “So‘z – Haqning soyasi... Har narsaning asli –so‘z... So‘z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug‘iladi. Ulug‘ Tangri olamni so‘z bilan yaratdi va “bo‘l!” deyishi bilan bo‘ldi... So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir”, deya so‘zning nafaqat muqaddas kitob, balki inson sharifligining boisi, amaliy hayot mevasi ekanligini ta‘riflagan. Tasavvufda so‘zning qudrati keng ifoda etilar ekan, ayni chog‘da mumtoz adabiyotda ham uning ta‘rifiga maxsus bob bitish an‘ana tusini oldi. Mumtoz adabiyot an‘analarini davom ettirib, uni o‘ziga xos novatorlik bilan boyitgan ulug‘ iste‘dod egasi Alisher Navoiydir. Shoir o‘zining buyuk “Xamsa” asarida ham mazkur an‘anani davom ettirdi. “Xamsa”ning ibtido dostoni bo‘lgan “Hayratul abror”da “So‘z ta‘rifida” deb nomlangan alohida bob yaratdi. Navoiy so‘z ta‘rifiga to‘xtalar ekan, beqiyos tashbehlardan foydalandi. Hatto bu bilan bog‘liq fikrlarini “Layli va Majnun” dostonida ham davom ettirdi. Dostonning V bobi “So‘z gavhari vasfi” ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dastlab nasriy sarlavha keltirilgan: “So‘z gavhari vasfidakim, gavhar so‘zi aning qoshida gavhar olida bir qatra suvdek bo‘la olg‘ay, bir necha so‘z surmoq va Ganja hakimi ta‘rifidakim, ganji Qorunaning «Panj ganji» qoshida ganj olida vayronadek ko‘rungay — ganjfishonliq qilmoq va Hind sohirinikim, Kashmir jodulari aning olida ip esha olmaslar — aning gavhari silkiga tortmoq va o‘z nazmining churuk rishtasin va uzuk torin ham alarg‘a ulamoq”.

Joriy tildagi tabdili: “Oldida gavhar bir qatra suvdek tuyuladigan so‘z gavhari vasfida bir necha so‘z demoq. «Besh xazina»si oldida Qorun xazinasini vayronadek ko‘rinadigan Ganja hakimi ta‘rifida ganj sochmoq: Kashmir jodulari uning oldida ip esholmaydigan Hind sehrigarini uning gavhari shodasiga tizmoq va o‘z nazmning churuk ipini va uzuq torini ham ularga ulamoq».

Ulug‘ shoir mazkur nasriy sarlavhada so‘zga shunday yuksak ta‘rif beradiki, gavhar uning (so‘zning) oldida bir qatra suvdek tuyuladi, deydi. Bu ta‘rif shunchaki mubolag‘aviy ta‘rif bo‘lmay o‘z asosiga ega. Chunki qimmatbaho sanalgan gavharning o‘zi ham so‘zdan so‘ng, uning qudratidan yaralgan. Shu bois shoir nazdida so‘zning oldida gavhar bir qatra suvdek. Navoiy so‘zning ulug‘ qudrati Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviylarni ham bee‘tibor qoldirmaganligini, ularning ijod qalamidan dur, gavharlar-so‘zlar to‘kilganligini madh etadi. Ulug‘ Nizomiyning “Panj ganj” (“Besh xazina”) i oldida Qorunning xazinasini varona sanaladi, deya Navoiy Ozarbayjon shoirining “Xamsa” siga yuqori baho beradi.

Ma‘lumki, Qorun behisob boylikka ega bo‘lgan diniy afsonaviy shaxs bo‘lib, mumtoz adabiyotda xasislik timsolidir. Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Qorunni Muso payg‘ambar qarindoshlaridan ekani, ilmu fazilatda o‘tkir, ayniqsa, kimyo fanida mohir, qobiliyatli kishi bo‘lganini yozadi. Keyincha, u ko‘p oltin to‘plab, katta boylikka ega bo‘ladi. Xazinasini bilan birga uning xasisligi, imonsizligi osha boradi. U xudoni ham tan olmay qo‘yadi. Musoning uni dinga, e‘tiqodga chaqirishiga ham parvo qilmaydi. Natijada Musoning duobadiga uchraydi, tamomi xazinasini, boyligi bilan uni yer yutadi. Behisob boylik egasi bo‘lgan Qorunning mulki, Nizomiy “Panj ganj”i oldida qadrsiz va varonadir. Navoiy ikkinchi ulug‘ xamsanavis Xisrav Dehlaviy madhiga o‘tar ekan, uning so‘z qo‘llash mahorati oldida Kashmir jodugarlari ip esholmay qolajagina iftixor ila ta‘riflaydi. Ya‘ni har ikkala xamsanavisning so‘z qo‘llash mahoratiga obrazli ifodalar yordamida baho beradi. Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibidagi har bir dostonning an‘anaviy kirish boblarida o‘z salaflari bo‘lgan Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy nomlarini hurmat va samimiyat bilan tilga oladi. Mazkur bobda ham hazrat Navoiy o‘zidan avvalgi salaflarining so‘zdan qanday foydalanganlarini, so‘zning qimmatini, uning hech qanday durru javohirlar bilan tenglashtirib bo‘lmasligini,

soʻz bir dengiz boʻlib uning tubida cheksiz maʼnolar olami yashirilib yotganini taʼkidlaydi. Bobning birinchi bayti shunday boshlanadi:

Uldamki yoʻq edi budu nobud,  
Maʼdum edi emdi harne mavjud,

Bu baytda Navoiy olamning yaratilishi bilan bogʻliq fikrlarga ishora qilib, uldamda mavjud boʻlgan barcha narsalar maʼdum (mavjud boʻlmagan) edi. Hech bir mavjudlik yoʻq edi, barchasi yoʻqlik olamida edi, deydi. Navoiy ayni mulohazalarini keying baytda davom ettiradi:

Haq qavngʻa solmamish edi pay,  
“Konallohu lamyakun maah shay”.

“Konallohu lamyakun maah shay” – Alloh taolo bilan birga hech kim yoʻq, yaʼni u yolgʻiz, mavjud boʻlganda kavn (borliq, dunyo)ga pay (qadam qoʻymoq, boshlamoq) soldi. Shunda uning (haqning) avvalgi ofarinish (yaratilish) nasimi (shamoli) mavjudlik sari junbish (harakatga kelish) qildi:

Avvalgʻi nasimi ofarinish,  
Kim qildi vujud sori junbish.

Ammo shu junbishni yuzaga kelishi uchun eʼtibor berilsa, koʻz solib qarasa, soʻz kerak edi. Lekin shu soʻz mavjud emas edi:

Insof ila har kishi solur koʻz,  
Anglar soʻz ediyu munda yoʻq soʻz,

Bu olamda Allohdan boshqasi yoʻq edi. Insof bilan nazar tashlagan har bir kishi bu soʻzni anglar ediyu, lekin nutqning oʻzi yoʻq edi. Shunda “Kun”, yaʼni yaral amri “huvaydo” (ayon, zohir) boʻlgan chogʻda “fayakun” (yaralish) “gʻulusi” (toʻpolon, shovqini) ham paydo boʻldi:

Kim boʻldi chu amri “kun” huvaydo,  
Boʻldi fayakun gʻulusi paydo.

Demak, eng avvalgi, birinchi sado (tovush) soʻz boʻldi, har savt (tovush, ovoz) ning ibtidosi (boshlanishi) ham soʻz boʻldi:

Bas avvalgʻi sado soʻz oʻlgʻay,  
Har savtqa ibtido soʻz oʻlgʻay

Har bir mavjudlikning, goʻzallikning ibtidosi soʻz ekan, shoir uning taʼrifu, tashbehiga alohida yondashadi:

Ey soʻz, ne balo ajab guharsen,  
Gavhar neki, bahru mavjrarsen.

Navoiy nido sanʼati imkoniyatlaridan unumli foydalanib, fikrni soʻzga murojaat bilan boshlaydi. Ey soʻz, bunchalik ajoyib gavharsen?! Birinchi misrada soʻzni gavharga tashbeh etadi. Ikkinchi misrada esa rujuʼ sanʼatidan foydalanib, gavhar nimasi, mavj urgan dengizsan deya yuzlanadi.

Ul bahrki, muncha naqshi dilkash,  
Bir mavj ila ayladi munaqqash.

U bahr (dengiz) buncha dilkash naqshlarga egaki, bir mavj (toʻlqini)i bilan munaqqash (naqshlangan, bezatilgan) ayladi. Aytish lozimki, yer qaʼridan tortib, falak yuksakligigacha boʻlgan ashyolarning jami uning avvalgi mavjidir: Yer qaʼriyu toki charx avji,

Majmui aning burunqi mavji.

Shoir fikrlarini dalillab, seni dur deydir, yaʼni durga tashbeh etadilar, ammo bu asosli emas. Chunki durquruq suvning oʻzidir, sen esa ruh javharisan, deydi: Derlar seni dur, savob emas bu,

Sen javhari ruhu dur quruq suv.

Demak, seni durga oʻxshatish, xuddi durni shudringga oʻxshatish kabidir:

Demakki sanga shabih erur dur,  
Ul navʼdururki, durgʻa moʻldur,

Shoir soʻz taʼrifini davom ettirar ekan takrir sanʼatidan oʻrinli foydalanib, fikr taʼsirchanligiga erishadi:

Aytib sovumas tarona sen-sen,  
Olib qurumas xizona sen-sen.

Yaʼni soʻzni aytib sovumaydigan “tarona” (qoʻshiq) sensan, sarflayversa ham, tugamas “xizona” (xazina) sensan deya taʼkidlaydi. Shoir keying baytda tamsil (hayotiy dalillash) dan mahorat bilan foydalangan:

Olam eli zarra yigʻsa jovid,  
Nurini kam aylagaymu xurshid.

Alisher Navoiyning ilohiy ishq taʼrifiga bagʻishlangan “Layli va Majnun” dostonining anʼanaviy bobida ham soʻz haqida maxsus bob keltiradi. Dostonda shoir soʻzni taʼriflashda turli badiiy tasviriy vositalardan oʻrinli foydalanib, soʻz taʼsirchanligiga erishadi. Soʻz qudrati va latofatiga baho berish bilan

birga, ulug' xamsanavislar ruhidan madad tilaydi. Bu bilan ulkan ishning xayrli yakuniga erishishni maqsad qiladi.